

XORAZM SHOIRLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATLARI (ROJIY)

Shonazarova Munira

Urganch davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3- boshqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX - XX asrlarda xorazmda yashab ijod etgan shoir Rojiy asarlarining til xususiyatlari tahlilga tortilgan. Asosan, gʻazal, muxammaslardan namunalar keltirilib, lingvistik jihatdan tahlil qilinib, umumiy leksik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Badiiy asar leksikasi, badiiy sinonim, antonim, omonim, dialektizm, oʻgʻuz lahjasi, fonetik dialektizm.

XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhiti oʻziga xosligi, fan, adabiyot va sanʼat taraqqiyotidagi oʻrni bilan ajralib turadi.

Xorazm adabiy muhiti oʻzbek adabiyotining ajralmas bir qismini tashkil etadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Joʻshqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprogʻida unib-oʻsgan, xalqimiz tarixida oʻchmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabgʻuziy, Sulaymon Boqirgʻoniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa koʻplab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan”.¹

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida badiiy asar tilidagi maʼnodosh, shakldosh, zid maʼnoli, koʻp maʼnoli, tarixiy va arxaik soʻzlar, yangi yasalmalar, shevaga oid soʻzlar, chet va vulgar soʻzlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi. Xorazmlik shoir Rojiy ijodini kuzatar ekanmiz, uning sheʼrlarida bu kabi holatlarga koʻzimiz tushadi. Oʻgʻuz lahjasiga oid soʻzlarni, omonim, maʼnodosh va zid maʼnoli soʻzlardan mohirona foydalanganliklariga guvoh boʻlamiz.

Rojiy XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashab ijod etgan isteʼdodli shoir. Rojiy hayotiga oid juda kam maʼlumotga egamiz. Uning bir devoni

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. “Oʻzbekiston” 2017. B-241.

va muxammaslari yetib kelgan. Rojiiy devoni klassik adabiyot uslubida yozilgan gʻazal, muxammas, musaddas, qasida va boshqa janrlardagi sheʼrlarni oʻz ichiga oladi.

**Kimi olamda sondim, oshno - nooshno goʻrdum,
Kima yakdillik etdim, koʻnglini mendan judo goʻrdum.
Kimakim mehr zohir ayladim, ranji ano goʻrdum,
Vafo har kimsadakim istadim, andin jafo goʻrdum.
Figʻonkim har qachon oʻtdum farax giryonli gʻulvirdi,
Gʻino asbobi dutdum besaru somonli gʻ ulvirdi.¹**

Ushbu bayt Rojiiyning Fuzuliyga bitgan muxammasidan bir parcha. Bu bayt antonimlarga boy bayt hisoblanadi. Oshno, nooshno soʻzlari baytda tushunchalarning dixomotik boʻlinishlari antonimini hosil qilyapti, yaʼni old qoʻshimcha orqali antonimlikni vujudga keltiryapdi. Mehr, ranj, vafo, jafo kabi antonimlardan mohirina tarzda foydalanganligiga guvoh boʻlamiz. Xorazm shevasiga oid oʻgʻuz lahjasining ayrim joylarida uchraydigan “dutdum” fonetik dialektizmni ham uchratamiz. “Dutdum” soʻzining adabiy tilga xos varianti “tutdim”. Bu yerda “t” jarangsiz tovushining oʻrniga “d” jarangli tovushi egallaganini koʻramiz. Yana bu baytda oʻgʻuz lahjasida ishlatiladigan goʻrdum soʻzidan ham foydalanganligini koʻramiz. Adabiy tilga xoslangan shakli “koʻrdim” hisoblanadi. Bu yerda ham jarangsiz “k” tovushi jarangli “g” tovushiga almashganligini guvohi boʻlamiz. Asosan bu kabi holatlarni Xorazm shevasining oʻgʻuz lahjasida yaʼni (Yangiariq, Xiva, Hozarasp) kabi tumanlarida uchratishimiz mumkin.

Adibning Navoiy gʻazaliga bitgan muxammasida ham bir qator zid maʼnoli soʻzlarni uchratamiz.

**Icharga bodayi ishq oʻlma porso bilkim,
Emaski ichmaki zuhd ahligʻa ravo bilkim.
Chu ishq sharʻi bila der esam songo bilkim,
Ongo halol mayu ishq, dayr aro bilkim.
oʻzi zuhdni qilmish xarom men yangligʻ.²**

Ushbu muxammasda halol, xarom soʻzlari orqali leksik antonimlik vujudga kelyapti. Adabiyoshunoslikda zid maʼnoli soʻzlarni qoʻllash tazod sanʼatini vujudga keltiradi, va sheʼrning ohangdorligini oshirishga xizmat qiladi. Badiiy adabiyotda antonimlar yordamida sintaktik birikmalardan antiteza hosil qilinadi.

Shoirning “Yo rab” gʻazalida sinonimlarni uchratishimiz mumkin.

Jurmu gunoh sipohi toroji dinim istar,

¹ Berdimurodova. M. “Jamoling gulshanining bulbiliman”. A.Navoiy nomidagi “Oʻzbekiston milliy kutubxona” nashriyoti. T. 2008. B-108.

² Oʻsha asar 26-bet.

Dinimga tavbadin qil mahkam hisor, yo rab.

Ushbu baytda adib o‘zlashma so‘zlardan foydalangan. Jurm arabchadan olingan bo‘lib ayb degan ma‘noni bildiradi. Guhon esa fors tilidan o‘zlashgan so‘z hisoblanadi. Bu baytda ushbu so‘zlar to‘liq sinonimlikni hosil qilyapti. Rojiiy baytda takroriy so‘zlardan foydalanmaslik va uslubiy g‘alizlikni keltirmaslik uchun sinominlardan unumli foydalangan.

Qilib dunyoni foni davlatidin xotiring xurram,

Faqir ahvolidin yumma ko‘z och, ey g‘onij berahm.¹

Ushbu bayta shoirning Mulla Vaysniyoz Ziyrak ga‘zaliga bog‘lagan muxammasidan bir parcha hisoblanadi. Bu baytda shoir faqir g‘ani kabi o‘zlashma so‘zlardan mohirona foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz. Faqir arabcha so‘z bo‘lib, “kambag‘al” ma‘nosini ifodalaydi. G‘ani so‘zi ham arabcha so‘z hisoblanadi, va “boy” degan ma‘noni beradi. Baytda bu so‘zlar gradual va koordinatsiya qilingan qarama-qarshiliklar antonimini vujudga keltiryapti. G‘ani so‘zining ikki xil ko‘rinishi mavjud. Ko‘pgina adabiyotlarda g‘ani yoki g‘aniy shakllari keltirilgan. Ushbu ko‘rinishlarni vujudga kelishiga sabab arabcha so‘z bo‘lganligi. Chunki arab tilida yoy harfi so‘z oxirida kelganida “i” yoki “y” tarzida o‘qishilishi mumkin. Bu baytda g‘oni so‘zi orqali fonetik hodisa hosil qilingan. “A”lablanmagan unlisi “o” lablangan unlisiga almashgan. Ya‘ni fonetik dialektizm vujudga kelgan. Xorazm shevasida ko‘pgina holatlarda “a” unlisini “o” tarzida talaffuz qilishini kuzatishimiz mumkin.

Rojiiy Sharif g‘azaliga bog‘lagan muxammasida ham bir qator zid ma‘noli so‘zlar mavjud.

Lablaring shavqin chekib yuz zaxmi mijgon saqladim,

Sabr qildim, ko‘zlaring bedodig‘a jon saqladim.

Necha yildur qofi ishqing chektim afg‘on saqladim,

El arosida necha sirrimni pinhon saqladim.

Bu sarig‘ yuz oshkoro ayladi sirri nihon.²

Ushbu baytda antonim so‘zlar bilan bir qatorda sinonim so‘zlar ham qatnashgan. Pinhon, nihon so‘zlari fors tilidan olingan bo‘lib, ikkalasi ham yashirin degan ma‘noni bildiradi, va bu baytimizda sinonimlikni vujudga keltiryapti. Baytimizda pinhon, nihon so‘zlariga zid tarzida “oshkor” o‘zlashma so‘zi keltirilgan, va baytda antonimlikni hosil qilyapti.

Shoirning “Ko‘rgach” radifli g‘azalida dialektizmdan mohirona foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz.

¹ O‘sha asar 114-bet.

² O‘sha asar 110-bet.

**Aylar erdi nechalar husni malohat da'voyi,
Qo'ydilar ondin uyolib bori da'vo ko'rgach.¹**

Ushbu g'azalda "uyalmoq" fe'lining shevaga xos shakli qo'llanilgan. Xorazm shevasi o'g'uz lahjasi "ā"(o) sheva bo'lganligi uchun ko'pgina so'zlarda "a" o'rnida "ā" (o) ishlatiladi. Bu yerda ham shu holatga duch kelamiz. Ya'ni "uyalmoq" so'zidagi "a" tovushi uyolib "o" tovushiga alamshib fonetik dialektizm vujudga keltiryapti.

Rojiyning "Anga" radifli g'azalida omonimlardan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin.

**Ul parikim, barcha bo'lmish oshnolar yot anga,
Yotlarga oshno bo'lmish nedur holat anga.²**

Mazkur g'azalda shoir "yot" omonimidan foydalangan. Yot omonimi yotmoq fe'li bilan leksik grammatik omonimlikni hosil qiladi. Ushbu g'azalda yot so'zi begona ma'nosida kelayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Adibning "Jong'inamiz" radifli g'azalida ham omonimlarga duch kelamiz.

**Telbarib ishq biyobonida yig'lay-yig'lay,
Chiqodur ko'k sori faryod ila af g'ong'inamiz.³**

Shoirning bu g'azalida "ko'k" shakldosh so'zidan foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Ko'k so'zi "osmon", ko'k rang" so'zlari orqali to'liq omonimlikni hosil qiladi. Ushbu g'azalda ko'k so'zi osmon ma'nosida kelyapti. Ko'k so'zini shoirlarimiz ijodlarida falak kabi sinonimini ham uchratishimiz mumkin.

Shoirning "Yod" radifli g'azalida ham shakldosh so'zlarni uchratamiz.

**Vahkim, mani ul qoshlari yo aylamadi yod,
Qotil ko'zi jonim g'a balo, aylamadi yod.⁴**

Ushbu g'azalda qaysi omonim qatnashganligini g'azalning nomlashidan ham bilib olsak bo'ladi. Ko'rib turganimizdek shoir bu g'azalida "yod" shakldosh so'zidan foydalangan. Yod so'zi tibbiyotdagi dori ma'nosida, yodlamoq fe'li bilan omonimlikni hosil qiladi. Mazkur g'azalda yod so'zi "esga olmoq" ma'nosida kelayotganligini guvohi bo'lamiz.

XIX asr XX asrda Xorazm adabiy muhitida yashab ijod etgan shoir, jumladan, Rojiiy asarlarining til xususiyatlari quyudagicha o'rganildi.

- Antonim so'zlar tahlili
- Sinonim so'zlar tahlili
- Omonim so'zlar tahlili
- Dialektizm (fonetik dialektizm) tahlili.

¹ O'sha asar 36-bet.

² O'sha asar 25-bet.

³ O'sha asar 54-bet.

⁴ O'sha asar 42-bet.

Yuqoridagi adib ijodiga oid g'azal, muxammaslardan namunalar keltirilib, ushbu bo'limlar bo'yicha chuqurlashtirib tahlil qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. "O'zbekiston" 2017.
2. Berdimurodova. M. Jamoling gulshanining bulbiliman. A.Navoiy nomidagi "O'zbekiston milliy kutubxona" nashriyoti. T. 2008.
3. Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. – Тошкент, 1967.
4. Qurbonova M, Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. T. "Universitet" 2014.